

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT
UNIVERSITETI

OLMON TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

5141400 xorijiy tillar va adabiyoti (olmon tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun 403-^A guruh talabasi Maftuna Boyqo'ziyevaning "Kasb-
hunar kollejlarida chet tili o'rgatishda kasbiy yo'nalishlarini hisobga olish
masalalari"

(terminologik minimumlar asosida) mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbari: dots. T. Nurmatov

Andijon 2012

I.Kirish

- 1.1.Mavzuning dolzarbligi
- 1.2.Mavzuning ishlanganlik darajasi
- 1.3.BMI ning amaliyotda ishlanganligi
- 1.4. BMI ning maqsad va vazifalari
- 1.5. BMI ning metodologik asosi
- 1.6. BMI ning bajarishida metodik tavsiyalar

- 1.7. BMI ning ilmiy yangiligi
- 1.8. BMI ning amaliy ahamiyati
- 1.9. BMI ning strukturasi

II.Asosiy qism

- 2.1.Kasbiy ta'lim yo'nalishlarida ta'limni rivojlantirish muammolari
- 2.2. Kasb-hunar kollejlarda chet tilini o'rgatishda lug'atlardan foydalanish usullari
- 2.3. 1.2.3. Bosqich kasb-hunar kollejlari uchun ajratilgan leksik minimumlar taxlili

III. Xulosa

IV.Foydalanilgan adabiyotlar

I.KIRISH

1.1. Mavzuning dolzarbligi. Respublikamiz hukumati va Prezidenti olib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda mamlakat hayotining barcha javhalarini rivojlantirishga, ayniqsa, yosh avlodni milliy tiklanishni mafkurasi ruhida tarbiyalashda juda katta e'tibor berilmoqda. Hozirgi kunda ta'lim olayotgan yoshlar Respublikamizning kelajagidir. Bu sharafligini bajarish, o'qituvchilar tayyorlash va ularning malakasini oshirish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda.

Prezidentimiz o'zining "Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati" nomli risolasida shunday deb ta'kidlaydi: "Tarbiyachi ustoz bo'lishi uchun boshqalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahraman qilish haqiqiy vatanparvar haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, avvalo tarbiyachilarning o'zi ana shunday talabalarga javob berish, ana shunday fazilatlarga ega bo'lish kerak. Bu tezis, o'z navbatida, o'qituvchi-tarbiyachilarning yuksak kasbiy va shaxsiy vazifalar egasi bo'lishini taqozo etadi. Shuning uchun ham o'qituvchi oldiga qo'yilgan vazifalarning o'ta murakkab, mas'uliyatli va ayni paytda sharaflidir"¹.

Rivojlangan davlatlar safidan o'rin olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan Respublikamiz, xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari kabi ta'lim sohasida ham ilg'or texnologiyalarni joriy etish va shu orqali ta'lim mazmunini jahon andozalari darajasiga olib chiqishga harakat qilimoqda. Hozirgi paytda oliy ta'lim muassasalarida va axborot kasb-hunar kollejlarda yangi pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llash va zamonaviy o'quv – uslubiy majmualarni ishlab chiqish muammolariga qaratilgan bir necha diqqatga sazovor ishlar amalga oshirishmoqda shuningdek, ta'lim tizimini takomillashtirish maqsadida xorijiy mamlakatlarning kasbiy ta'lim tajribalaridan foydalanilmoqda, ushbu ishlarni amalga oshirish ta'lim sohasida xalqimizning boy merosi, buyuk mutafakkirlarimizning g'oyalari va davrimizning ilg'or yangiliklarini o'zida mujassamlashtirgan metodik tizimning yaratilishiga asos bo'lmoqda.

"O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko'zda tutilgan asosiy vazifalardan biri ta'lim tizimini zamonaviy o'quv adabiyotlari va yangi pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlashdan iboratdir o'qitish jarayonining vazifasi ta'lim-tarbiya va rivojlanish birligini ta'minlashni nazarda tutadi. Biroq kasbiy ta'lim yo'nalishlari bo'yicha pedagog kadrlar tayyorlashda ta'lim oluvchilarning qobiliyati bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish ilmiy-amaliy bilimlarini chuquralshtirish muammosi bunday ham muhimroq, bu xususiyatlar kelajakda ta'lim oluvchilar qobiliyatini rivojlantirishda o'z kasblariga qiziqish va mas'uliyatni oshirishga yordam beradi"².

O'qitish jarayonida ta'lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini oshirish muammosi murakkab va ko'p qirrali, shuning uchun ta'lim oluvchilarning ilmiy–nazariy va amaliy

¹ Karimovi.I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. T., 1998.

² O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", T., 1997.

bilimlarini oshirishda ularning kasbga bo'lgan qiziqishi va qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda shuni esdan chiqarmaslik kerakki, ayniqsa, kasb – hunar kollejarida o'qitish jarayonida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini oshirish va ularning amaliy ko'nikma malakalarini shakllantirish uchun ta'lim jarayoniga yuqori darajali malakaga ega bo'lgan pedagoglar ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyasi va ularning ishlash tamoyillari bilan tanishtirish zarur, shunda, kasb–hunar kolleklarining yo'nalishi va ixtisoslik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ta'lim tizimi ishlab chiqarish jarayonlari bilan uzviy bog'lanish lozim. Buning uchun kasbiy ta'lim o'qituvchilari maxsus fanlarni o'qitish uslubiyatini, kasbiy pedagogik mahoratini va amaliy ko'nikmalarini oshirib borishlari talab qilinadi. Hozirgi kunda kadrlar tayyorlash milliy dasturimizda va jahon andozalariga moslashish ehtiyojidan kelib chiqqan holda kasbiy ta'lim o'qituvchi kadrlarning asosiy qismi yangi texnik va texnologiyani chuqur bilish hamda tahlil qila olishi yangilik yaratish darajasiga ega bo'lish juda muhim. Ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar va faol ta'lim omillaridan foydalanish yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tatbiq qilish talablarini ko'proq mustaqil ishlashga undash ilg'or tajribalardan saboq berishning turli yo'llardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Yana bir muhim jihati, kasb – hunar kollejarida ta'lim olayotgan, bilim va ko'nikmalari bo'yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb egallashlari uchun maxsus fonlarini o'qitishni samarali tashkil qilishdan iboratdir.

“O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, “O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risida ” gi qonunlarining qoidalariga muvofiq holda milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlari asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga ijodiy va ijtimoiy faollikka ijtimoiy siyosiy hayotida mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri o'qitish mahoratiga ega bo'lgan istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal erishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir”.¹

Maxsus dasturning maqsadi – ta'lim sohasini tubdan isloh qilish uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimni yaratishdir.

Prezidentimiz “Men Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir” degan fikrini ko'p mushohada qilaman” deganlar.² Chunki, ta'lim – tarbiya ong maxsuli lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan amaldir.

¹O'zbekiston Respublikasi ”Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”.

²Karimov I. A. Barkamol avlod orzusi.T;1999.

Binobarin, ta'lim tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad-ozod va obod jamiyatni qurib bo'lmaydi".

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng xorijiy mamlakatlar bilan bo'lgan diplomatik va iqtisodiy munosabatlarning o'sishi xorijiy tillarni o'rganishda bo'lgan extiyojini keltirib chiqardi. Bu esa o'z navbatida o'quv dasturlariga o'zgartirishlar kiritishni til o'rgatishni yangi samarador usullarini ishlab chiqishni hamda turli kasb-hunar kollejlarda xorijiy til o'qitish darslarini tashkil qilishning avvaldan qo'llanib kelayotgan usullardan o'zgacharoq bo'lgan yanada samaraliroq shakllarini topishini talab etmoqda.

Til o'rgatish bilan bog'liq bo'lgan zamon talabi keng jamoatchilikning ham xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan munosabatini o'zgartirib yubordi, hozirgi paytda xorijiy (chet) tillaridan nemis, ingliz, fransuz tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqish tabora ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida nemis tili o'rgatishning kichik yoshdagi bolalarni o'qitishdan boshlash kerakligini, hamda chet tili o'qitishning jadallashgan usullaridan foydalanish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Yana shuni ham aytib o'tish joizki, Respublikamizning bozor iqtisodiyotiga o'tishi, xorijiy (chet) mamlakatlar bilan hamkorlikda qo'shma korxonolari firmalari savdo yarmarkalarining keng miqyosida tashkil etilishi va tijorat ishlarining yo'lga qo'yilishi tadbirkor va ishbilarmonlarimizning xorijga tez-tez borib turishlari ham xorijiy tillarni bilish bilan bog'liqligi hech kimga sir emas. Tilning o'rganish jarayoni murakkabdir.

Til o'qitishning jadallashgan (intensive) usullarini amalda qo'llashga bo'lgan xarakteristik xarakteristik o'sdi va bunda bir qancha ijodiy natijalarga erishildi. Zamonaviy usullar pedagogika, psixologiya va lingvistika qonuniyatlari asosida yuzaga keldi va ushbu fanlardagi har qanday yangilik til o'rgatish usullarini yanada samarali qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

(Ushbu usul chet tilidagi nutq faoliyatini shakllantirishning va o'stirishning ilmiy jihatdan asoslangan manbalariga suyangan holda ish olib boradi).

"Mamlakatimiz Prezident I.A. Karimov 2010-yil dekabr oyida Samarqand viloyati xalq deputatlarining navbatdan tashqari sessiyasida qilgan nutqida chet (xorijiy) tillarning vatanimiz ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotidagi rolini alohida ta'kidlab o'tdi. Chet tillarini o'qitish jarayonini yangi sifat bosqichini tashkil etish va amalga oshirish boyicha qator qimmatli fikr mulohazalarini bildirdi va topshiriqlar berdi. Bugungi talab chet tillarini, kompyuter texnologiyalarini mustahassisligi bo'yicha mukammal bilim va malakalariga ega, jahon andozalari darajasida erkin va ijodiy fikrlay oladigan yuksak ma'naviy jihatlarga ega fidoiy mutahassislar tayyorlashdir. Globallashuv jarayoni kechayotgan bugungi kunda xorijiy

tillarni mukammal o'rgatishga talab va qiziqishlarning kundan-kunga ortib borayotgani tabiiy hol albatta".³

O'zbekiston Respublikasining jahon miqyosida obro'-e'tibori ortib uning boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy aloqalari kundan-kunga kengayib borayotganligi chet tilini o'rganishga bo'lgan talabni ham tabora kuchaytirmoqda. Iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan islohatlar chet (xorijiy) mamlakatlar bilan diplomatik, savdo-sodiq, sayyohlik va madaniy aloqalarning rivojlanishi xalq xo'jaligining har qanday sohasida band bo'lgan kishilardan hech bo'lmaganda bir-ikki chet tilni bilishni taqazo etmoqda.

1.2. Mavzuning ishlanganlik darajasi. Amaldagi dasturga muvofiq xorijiy tillarni o'qitish kursi kasb-hunar kollejlari uchun bosqichga bo'linib, ular o'rtasida uzviy bog'liqlik bo'lishi zarur. Birinchi bosqich o'z ichiga o'quv yilining birinchi semesterdagi 36 soat auditoriya mashg'uloti va ikkinchi semesterda ham 36 soat auditoriya mashg'ulotini o'z ichiga oladi. Ikkinchi bosqich tarkibida 3-4-semesterlardagi 68 soat majburiy mashg'ulotlar kiradi. Uchunchi bosqichda 5-6 semesterlardagi 56 soat majburiy mashg'ulotlar nazarda tutilgan. Ta'lim kursi 6-semesterda davlat attestatsiyasi bilan yakunlanadi.

G. Pan, SH. Karimov, D. Ismatillayeva "Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma" T. 2007 Dadaxodjayeva M.S. S.D. Novikova, S.A. Ziyayeva "Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma" T. 2007 bular 1-2-3 bosqich kollejlari uchun maxsus o'quv qo'llanmalari ishlab chiqqanlar.⁴

1.3. BMIning amaliyotda ishlanganligi. Bitiruv malakaviy ishi materiallari va bu ish davomida chiqarilgan xulosalar Andijon davlat universiteti Xorijiy tillar fakulteti nemis tili yo'nalishi 4-bosqich talabalari Boyqo'ziyeva Maftuna va Sobirova Muxayyo Axmadaliyeva Shaxlo muallimlik amaliyoti davomida Farg'ona viloyatlari va shaxarlarida joylashgan kollej va maktablarda amaliyotga tadbiiq etildi. Bunda men Farg'ona viloyati O'zbekiston tumaniga qarashli 37. umumta'lim maktabida amaliyot o'tadim. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, har bir pedagog o'zining metodik mahoratiga asoslanib amaliyot o'taydi. Men o'zim dars bergan 8 9 sinflarda o'quvchilarning chet tiliga bo'lgan qiziqishlarini ko'rib, o'zimda, bu sohaga bo'lgan qiziqishim yanada ortdi. Yanada ko'proq o'zim ustimda izlanishga, yangi yangi ma'lumotlar topishimga va o'zimdagi barcha bilimlarni o'quvchilarga berishga harakat qilaman.

³ Karimov I. A. Samarqand viloyati xalq deputatlarining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlagan nutqi 2010 yil, dekabr.

4.

1.4. BMIning maqsad va vazifalari. Til bevosita tafakkur bilan chambarchas bog'liqdir. Tafakkur faqat insonga hosdir. U kishilarning mehnati va nutq faoliyati bilan bog'liq holda mavjud. Inson tafakkuri nutq bilan yuzaga chiqadi va uning natijalari tilda qayd etiladi.

Til kishilarning bir –birlarini bilishlari do'stlashishlarida beboha vosita ekanligini yana bir bor aytish mumkin. Maktab, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarida ikkinchi til tushunchasi, o'zbekcha o'qiydiganlar uchun rus tili, ruscha ta'lim oluvchilar uchun o'zbek tili demakdir.

Chet tili bu chet (xorijiy) mamlakatlari tilidir. Respublikamizda g'arbiy yevropa va sharq tillari o'qitilmoqda.

Chet (xorijiy) til o'qitishdan asosiy maqsad, xorijiy tilni amaliy egallash o'zgarar nutqini tushunish va o'z filrini erkin bayon etishdir. Xorijiy tilni o'rganishning axamiyati juda katta. Chunki boshqa xalqlar bilan madaniy hamkorlikni rivojlantirish, o'zbek tilida yaratilgan asoslarni xorijliklarga tanishtirishda til bilishlik muhim ro'l o'ynaydi. Ayniqsa chet mamlakatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy aloqalar o'rnatishda, vatanimiz ravnaqiga hissa qo'shishda tilning o'rni beqiyosdir. Biz hozir XXI asr ya'ni "axborot texnologiyalar " asrida yashamoqdamiz. Kompyuter texnologiyalari va xorijiy tilni bilmay turib yetuk mutaxassis bo'lish va vatan ravnaqiga hissa qoshish qiyin.

"Milliy dasturning maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich ro'yobga chiqariladi. Bunda birinchi bosqich 1997 – 2001 yilni, ikkinchi bosqich 2001-2005 yilgacha, uchunchi bosqich esa 2005 yil va unda keyingi yillar o'z ichiga oladi, shundan biz uchunchi bosqichda ta'lim muassalarini resurs kadrlar va axborot bazalari yanada mustaxkamlanadi, o'quv-tarbiya jarayoni yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq taminlanadi "milliy" (elita) oliy ta'lim muassalarini qaror toptirish va rivojlantirish amalga oshiriladi"¹.

Kasb-hunar ta'limi muassalarini mustaqil faoliyat yuritishi va o'zini-o'zi boshqarish shakllari mustaxkamlanadi. Ta'lim jarayonini axborotlashtirish, uzliksiz ta'lim tizimi jahon axborot tarmog'iga ulanadigan kompyuter axborot tarmog'i bilan to'liq qamrab olinadi deyilgan maskur bosqichda. Bunda **uzluksiz ta'lim mohiyati** - kadrlar tayyorlash tizimining asosidir. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotni taminlovchi shaxs, jamiyat va davlatni iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy – texnikaviy va madaniy extiyojlarini qonduruvchi ustuvor sohadir. Uzliksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakaviy raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi. Uzliksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim istandartlari asosida, turli darajalarida ta'lim dasturlarining izchiligi asosida ta'minlanadi va quyidagi ta'lim turlarini o'z ichiga oladi:

¹ Karimov I. A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.T; 1997

Maktabgacha ta'lim;
Umumiy o'rta ta'lim;
O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;
Oliy ta'lim;
Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta toyyorlash;
Maktabdan tashqari ta'lim

Shundan, o'rta maxsus kasb- hunar ta'limi

Umumiy o'rta ta'lim negizida muddati uch yil bo'lgan majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uzliksiz ta'lim tizimidagi mustaqil turidir. O'rta maxsus kasb–hunar ta'limi yo'nalishi, akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji o'quvchilari tomonidan ixtiyoriy tanlanadi.

Sharx; akademik litsey- davlat ta'lim standartiga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beradi. O'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual kasbga yonaltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Kasb-hunar kolleji - tegishli davlat standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb – hunar ta'limi beradi. O'quvchilarning, kasb-hunarga moyilligi , bilim va ko'nikmalarni chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir nechta ixtisoslikni egallash imkonini beradi.

Tilning vazifasi shulardan iborat. Xozirgi paytda til o'qitish uslubiyati fanni oldiga qo'yilayotgan vazifalaridan biri bu tilni aloqa vositasi sifatida o'rgatishdan iboratdir. Darxaqiqat, avval til o'qitishdagi asosiy vazifa tilni sistema sifatida o'rgatishdan iborat bo'lgan hozirda esa tilni aloqa vositasi sifatida o'rgatishda zarurati va shu bilan bog'liq talab kelib chiqmoqda.

Masalan Kopushanskiy G.V ning fikricha til o'qitishning jadallashtirilgan Yani "intensiv" usuli o'zida xos usul bo'lib, u til materialarini tanlash va o'qitishni tashkil qilishda nutqiy materialga hamda til materialiga alohida munosabatni ishlab chiqdi. Intensiv metod bilan ishlashdagi eng muhim til o'rganuvchiga bo'lgan munosabatlar, uni oddiy ya'ni an'anaviy o'qitish jarayonida foydalanilmay qolayotgan ichki imkoniyatlaridan, shaxsning xissiyoti, qiziqishiga asoslangan kechinmalaridan to'laroq foydalanishga qaratilgan faoliyatdir.

1.5.BMning metadalogik asosi. "Avvalo shu takitlash joizki, bundan 15 yil oldin qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi" deb nom olgan ta'lim sohasini isloh qilish dasturi mamlakatimizda yangi jamiyat qurishning bosqichma –bosqich va tadrijiy rivojlanish prinsipiga asoslangan iqtisodiy va siyosiy islohatlarning biz tanlagan "O'zbek mo'deli " o'z taraqiyot yo'limizning ajralmas tarkibi qismidir. Unib-o'sib kelayotgan avlodning ongida demokratik qadriyatlarni mustaxkamlashga qaratilgan bo'lib, qisqacha aytganda, bu dastur hayotda o'z

fikriga, o'zining qarashlari va qat'iy girajdanlik pozitsiyasiga ega bo'lgan, har tamonlama yetuk va mustaqil fikrlaydigan shaxsni shakllantirishni maqsad qilib qo'yadi".⁵

Qabul qilingan dasturga muvofiq, mamlakatimizda 9+3 sxemasi bo'yicha 12 yillik umumiy-majburiy bepul ta'lim tizimi joriy etildi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan modelining prinsipial xususiyati shundaki, umuta'lim maktabidagi 9 yillik o'qishdan so'ng o'quvchilar keyingi 3 yil davomida ixtisoslashtirilgan kasb – hunar kollejlari va akademik litseylarda taxsil olib, ularning har biri umumta'lim fanlari bilan birga mehnat bozarida talab qilinadigan ikki-uchta mutaxassislik bo'yicha kasb-hunarlarini ham egallaydi. Shu bilan birga, yana bir jihatni nazarda tutish lozim. Ya'ni, bizning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan dastur bu boshqa modellarni qandaydir takrorlash yoki ulardan nusxa ko'chirish emas. Aksincha, birinchi navbatda ,rivojlangan demokratik davlatlarda to'plangan tajribani o'zida mujassam etgan va ayni payitda shiddat bilan o'zgarib borayotgan hozirgi zamon talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqarilgan dasturdir.

1.6.BMIning bajarishida metodik tavsiyalar.Bu degani, o'qituvchi va tahsil oluvchilarning yagona maqsadga erishish borasidagi o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlardir. Chet tilini o'rgatish jarayoni murakkab va ko'p qirrali bo'lib, nihoyatda xilma –xil va turli harakterdagi omillarga bog'liq. Shuning uchun biz pedagoglar talabalarga chet tilini o'rgatishda turli metodlardan foydalanamiz.Masalan;

Tasviriy metod -bu metod asosida tilning fonemalar sistemasi, morfema tuzilishi, gramatik kategoriyalar, so'z manolari va gap turlari o'rganiladi, tahlil qilinadi, tilning ichki qurilishi, til sistemasini tashkil etgan elementlar orasidagi munosabatlarni o'rganishga katta e'tibor beriladi.

Kommutatsion analiz metodi- bu metod til birliklaridan mazmn plani va ifoda plani munosabatlarini o'zaro almashtirish jarayonida ularni tovush birliklaridan ajratishni o'zining asosiy maqsadi qilib qo'ygan. Bunga nemis tilida Tuch-Buch, o'zbek tilida esa yur-yuz-yut so'zlarining boshi va oxiridagi tovushlar almashtirilsa, boshqa so'zlar hosil bo'ladi.

Transformatsion analiz metodi –bu metod hozirgi zamon tilshunosligida xususan, sintaktik va stilistik tadqiqotlarda eng ko'p qo'llaniladigan metod hisoblanadi.masalan; nemis tilida las- hat gelesen-von j-m wurde gelesen, o'zbek tilida esa o'qigan, o'qib chiqgan, tamoman o'qib bo'lgan bo'ladi.

1.7.BMIning ilmiy yangiligi. Bu degani, har bir kollej ya'ni pedagogika,meditsina,yengil sanoat, sanoat qishloq xo'jaligi, bank-iqtisodiyot kollejlari uchun alohida soha lug'atlari ishlab chiqilishi kerak. Shunga asosan biz quyida yani asosiy qismda pedagogikaga oid, sanoat qishloq

⁵Kasbiy talim metodikasi jurnalidan 2012 .2-son.

xo'jaligiga oid va meditsinaga oid terminologik lug'atlar va maqollar berdik. Shundan kelib chiqqan holda ko'plab lug'atlar ishlab chiqarilsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

1.8.BMIning amaliy ahamiyati. Bunda kollejlarda va akademik litseylar uchun alohida soha minimumlari shuningdek, har bir kollej sohasi uchun alohida lug'atlar tuzilsa, u bir tilla bo'ladimi yoki ko'p tilla bo'ladimi shunga qarab talabalarning og'zaki va yozma bilim saviyasi rivojlanadi. Quyida ya'ni asosiy qismda so'zlarni quriq yodlab emas, balki harakatlari orqali ifodalanishini va sanoat qishloq xo'jaligi to'g'risida shuningdek, meditsina sohasi bo'yicha terminologik minimumlar berganman. Yana "Biz ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat keng bilim va professional ko'nikmalarni egallashi, ayni paytda chet mamlakatlarda tengdoshlari bilan faol muloqot qilish, bugungi kunda dunyoda ro'y berayotgan barcha voqea-hodisalar, yagilik va o'zgarishlardan atroficha habardor bo'lishi, jahondagi ulkan intellektual boylikni egallashning eng muhim sharti hisoblangan xorijiy tillarni ham chuqur o'rganishlari uchun katta ahamiyat berilmoqda"⁵

Yana shuni qayt etish kerakki, O'zbekistonda ta'limning barcha bosqichlari uchun o'quv dasturlari ko'p million nusxada darsliklar va o'quv qo'llanmalari chop etilmoqda, o'qitishning ilg'or pedagogik texnologiyalari va interfaol usullari keng qo'llanilyati. O'quv yurtlarida turli o'quv adabiyotlari fondida jumladan elektron shakldagi qo'llanmalarga ega axborotlar resurs markazlari faoliyat ko'rsatmoqda. Bularning barchasi yoshlarga sifatli, chuqur va har tomonlama bilim olish uchun sharoit yaratilmoqda.

1.9.BMIning strukturasi. Bitiruv malakaviy ish uchun qismdan iborat bo'lib, bunda birinchi qism Kirish bo'lib, unda mavzuning dolzabligi, mavzuning ishlanganlik darajasi, BMIning amaliyotda ishlanganligi, BMIning maqsad va vazifasi, BMIning metodologik asosi, BMIning bajarishda metodik tavsiyalar, BMIning ilmiy yangiligi, BMIning amaliy ahamiyati, BMIning strukturasi berilgan. Ikkinchi qism Asosiy qism bo'lib, unda Kasbiy ta'lim yo'nalishlarida ta'limni rivojlantirish muammolari; Kasb-hunar kollejlarda chet tilini o'rgatishda lug'atlardan foydalanish usullari; 1-2-3-bosqich kasib-hunar kollejlari uchun ajratilgan leksik minimumlar tahlili kabi mavzular kengaytirilib, batafsil yoritib berilgan, bunda yana yangi terminologik lug'atlar ham berilgan. Uchinchi qismda esa Xulosa berilgan bo'lib, unda yuqoridagi mavzularga asosan yahlit fikirlar mujassamlashtirilgan. So'ngra Foydalangan adabiyotlar ro'yhati berilgan.

⁵ Kasbiy talim jurnali 2012 2 son 5 bet

2.1.I.BOB. KASBIY TA'LIM YO'NALISHLARIDA TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH

Kasb-hunar kollejlari jihoslanganlik darajasi pedagogik tarkibini tanlanganligi, o'quv jarayonining tashkil etilish jihatidan yangi tipdagi ta'lim muassasalari hisoblanadi. Ular bir yoki bir necha zamonaviy kasb-hunarni egallash hamda tegishli o'quv fanlaridan chuqur nazariy bilim olish imkonini beradi.

Akademik litseylar va kasb – hunar kollejlari ta'lim olish o'quvchilarga o'z bilimlarini chuqurlashtirish va tanlagan ixtisosliklarini chuqurlashtirish va tanlagan ixtisosliklarga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Ma'lumki iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlanib borishini e'tiborga olgan holda o'rta mahsus kasb-hunar ta'limini tayyorlov yo'nalishlari va ixtisosliklar, tasniflariga binoan kasb-hunar ta'limi tizimida ta'lim: gumanitar fanlar va san'at ijtimoiy fanlar, biznes va qurilish tarmoqlari; qishloqxo'jaligi; so'g'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot va xizmatlar kabi 8 ta bilim sohasi bo'yicha 300 dan ortiq tayyorlov yo'nalishlari uchun kichik mutaxassislar tayyorlash amalga oshiriladi.

Kasb-hunar kollejlari tashkil etish va rivojlantirish shart-sharoitlari, kasb-hunar kollejlari tashkil etish va rivojlantirish shart – sharoitlari quyidagilardan iborat:

Kasb-hunar kollejlari faoliyat ko'rsatishining me'yoriy asoslarini takomillashtirish va joriy etish;

Kasb – hunar kollejlari uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash va qayta tayyorlash;

Davlat standartlarini ishlab chiqish va joriy etish;

Kasb-hunar kollejlari uchun umumta'lim va kasb-hunar dasturlari, o'quv-uslubiy majmualar ishlab chiqish;

Geografik – demokratik sharoitlar va mutaxassislar bo'lgan mahalliy ehtiyojlarni hisobga olib, kasb – hunar kollejlari tashkil etish va ularni imkon qadar oilasidan ajratmay qamrab olish;

Kasb-hunar kollejlari moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlash va boshqalar.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturida kasb-hunar ta'limini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari. Kasb-hunar ta'limini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlariga quyidagilar kiradi”^{*}.

Kasb-hunar ta'limining uzliksizligini ta'minlash;

Kasb-hunar ta'limi uchun pedagogik va ilmiy – pedagogik kadrlar tayyorlash qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, isloh qilish va takomillashtirish;

¹Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” T. 1997 yil

Kasb-hunar ta'limida samarali ma'naviy-axloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlarni amalga oshirish;

Kasb-hunar ta'limida iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash;

Kasb – hunar ta'limi tizimini oqilona boshqarish;

Kasb-hunar ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini shakllantirish;

Kasb-hunar ta'limi tizimini yetarlicha moliyalash;

Kasb – hunar ta'limining moddiy-texnika taminotini yaratish;

Kasb-hunar ta'lim tiziminining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish;

Kasb –hunar ta'limi xizmat ko'rsatish bozorini rivojlantirish;

Kasb- hunar ta'limining ijtimoiy kafolatlarini ta'minlash hamda bu sohani davlat tomonidan qo'llab – quvvatlash;

Fan bilan kasb-hunar ta'limi jarayoni aloqadorligini rivojlantirish;

Ishlab chiqarish va kasb-hunar ta'limi integratsiyasini rivojlantirish;


Kasb – hunar ta'limi va karlar tayyorlash sohasidagi xalqaro hamkorlik kabi muammolar kiradi.


Kasb – hunar ta'limi standartlari davlat tizimi.

Ta'lim standartlashtirish – bu butun dunyo kasb-hunar ta'limini islohotlashtirishdagi eng yirik tendensiyalardan biridir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 16 – oktabrdagi 400 sonli “O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi davlat standartlarini tasdiqlash” to'g'risidagi qaroriga asosan o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi davlat standartlari tasdiqlandi.

Tarmoq standartlari Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan bosqichma – bosqich yangidan tashkil etilayotgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari ularni aprotsiya qilish tugagandan so'ng tasdiqlanadi 1-jadvalda kasb – hunar ta'limi davlat standartlari tizimi keltirilgan

1-jadval





Kasb – hunar ta’limi va davlat ta’lim standartlarining vazifalari:

Kasb – hunar ta’limi sifatiga va kadrlar tayyorlashga, ko’rsatiladigan ta’lim xizmatlari turlariga nisbatan qo’yiladigan maqbul talablarni belgilash; kasb hunar ta’limiga va uning pirovarol natijalariga ta’lim oluvchilarning bilimi va kasb malakasi darajasini vaqti- vaqti bilan baholash tartibiga, Shuning ta’lim faoliyati sifati ustidab nazorat qilishga nisbatan qoyiladigan tegishli talablarni belgilovchi me’yoriy negizni yaratish;

-xalqning boy aql-zakovat merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta’lim oluvchilarni ma’naviy - axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

- Kasb – hunar ta’limi o’quv-tarbiya va ta’lim jarayoniga, pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ta’minlashga, ta’lim darajasini nazorat qilishga, ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchilar va ularni bitiruvchilarning malakasiga nisbatan me’yorlash va talablarni belgilash;

-Kadrlarni mustaqil va sifatli tayyorlash uchun ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlash.

“Kasb-hunar ta’lim sifatini nazorat qilish.

Kasb – hunar ta’limi sifatini nazorat qilish, quyidagi usullarda olib boriladi:

Ichki nazorat o’qitish sifatining ichki nazorati ta’limni boshqarish bo’yicha vakolatli davlat organi tasdiqlagan “Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o’quvchilarining bilim va ko’nikmalarini nazorat qilishning reyting tizimi to’g’rida” gi nizom asosida reyting nazorat shaklida kasb-hunar ta’limi muassasasi tomonidan amalga oshiriladi. Nazoratning reyting tizimi quyidagi nazorat tadbirlar o’tkazilishini ko’zda tutadi.

Joriy nazorat – og’zaki so’rov, seminarlar, yozma ishlar, labarotiya ishlar, labarotoriya ishlari texnikaviy, diktant kurs loyihalari, uy vazifasi va hakoza, ya’ni o’quvchi o’z amaliyotida qo’llaydigan barcha so’rov turlarini o’z ichiga oladi.

Oraliq nazorat – fanning ma’lum bir qismi, bo’limi yakunlangandan so’ng o’tkazilish tartibi, shakli ta’lim muassasasini ilmiy pedagogik kengashi tomonidan belgilanadi.

Yakuniy nazorat – semester tomon bo’lganda va o’quv dasturining tegishli bo’limi tugallangandan keyin amalgam oshiriladi. Yakuniy nazoratning o’tkazilish tarbi, shakli ta’lim muassasasining ilmiy-pedagogik kengashi tomonidan belgilanadi.

Tashqi nazorat- O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi Davlat test Markazi tarkibidagi kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish pedagog kadrlar va ta’lim muassasalari attestatsiyasi boshqarmasi tomonidan tayyorlangan “Ta’lim muassasalari va pedagogik kadrlarning davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyasi haqidagi Nizom” va amaldagi meyoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Davlat – jamoat nazorati – ta’limni boshqaruvchi vakolatli davlat organiy va u bilan kilishilgan holda jamoat tashkilotlari kadrlarga talabgorlar tomonidan amalga oshiriladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi – davlat imtihonlari va malakaviy diplom ishi (loyiha) ni himoya qilishi bilan yakunlanadi”⁷

Bo’lajak kasb-ta’lim o’qituvchilaridan kasbiy ko’nikma va malakani shakllantirish bosqich pedagogik va texnik- texnologik muammoli, vaziyatli topshiriqlarni yechish orqali amalga oshiriladi. Bunda muammoli vaziyatga pedagogik jarayonni hosil qilishga imkon beruvchi sharoitlar to’plami sifatida qaraladi. Chunki pedagogik sharoitlar mazkur jarayonni yuzaga keltiribgina qolmay uning mavjud holatini ham belgilaydi.

“Kasb ta’lim o’qituvchilarini amaliy faoliyatga tayyorlash jarayonida pedagogik – psixologik turkum fanlar mavmuniga mos maxsus mashqlar va topshiriqlar ishlab chiqilgan. Bundan ko’zlangan maqsad, pedagogik jarayonning o’ziga xos xususiyatlari, mantig’i, o’qituvchlar va o’quvchilar faoliyatining tizimi bilan tanishtirishdir, o’z navbatida, bu bo’lajak kasb ta’lim o’qituvchisida pedagogik jihatdan vaziyatni ko’ra olish qobiliyatining shakllanishiga olib keladi

Kasbiy pedagogik faoliyatining o’ziga xos xususiyati va murakkabligi shundaki, o’qtuvchining o’quvchi shaxsiga yo’naltirilgan har qanday ta’siri o’quvchi ongida o’ziga xos o’zgarishga uchraydi, uning xatti-harakati, muloqati hamda faoliyati harakterida aks etadi. O’qtuvchi esa butun pedagogik jarayoni metodikasini o’zlashtirib olgandagina o’quvchi shaxsida sodir bo’ladigan ichki o’zgarishlarini oldindan ko’ra oladilar”⁸.

Pedagogik faoliyatida barcha topshiriqlar o’quvchining shaxsini shakllantirishga qaratilgan bo’lishi lozim. Bu tapshiriqlarni o’z mazmuni va xal etish usullariga ko’ra quyidagi bo’limlarga ajratish mumkin.

⁷ Karimov I.A Barkamol avlod-O’zbekiston taraqqiyotning poydevori.T.1997

⁸ O’rta maktab,akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o’quv dasturlaridan

Jamoa va shaxs rivojlanishini uzoq va o'rtacha istiqbollari bilan belgilanadigan vazifalar-**strategik** topshiriqlar. Ular sinchkovlik, o'qituvchi va o'quvchi xulq-atvoridagi o'zgarishlar turli bosqichlarda har xil pedagogik vositalardan foydalanish, o'z predmeti vositasida o'quvchilarda qiziqish uyg'otish mustahkam ma'lum maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy jamoa barpo etish kabi vazifalarni o'z ichiga oladi.

Yaqin istiqbol bilan bog'liq vazifalar – **taktik** topshiriqlar. Har bir o'quvchida mashg'ulotda muhokama qilish uchun mo'jallangan muammoga o'z munosabatini bildirish ehtiyojini uyg'otish: muvzuni bir – biriga yaqin fanlardagi bilimlar tizimi bilan bog'liq, mavzu yoki bo'lim bo'yicha o'quvchilar bilimining yahlit tizimining shakllantirish – vazifalarini bajarish faoliyatining muayyan turlarini tashkil etish o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarni birmuncha qayta qurish bilan bog'liqdir.

Hozir yuzaga kelgan vaziyat bilan bog'liq vazifalar-**operativ** (tezkor) topshiriqlar. Bular o'qituvchi uchun kutilmagan vaqt paytida bo'ladi va juda qisqa muddatda hal etishni taqazo etadi. Qisqa qilib aytganda, pedagogik topshiriqlar bo'lajak kasb-ta'limi o'qituvchilarida pedagogik hodisalarining murakkab olamiga yanada teran nazar tashlashga ulardagi muhim aloqadorlik va munosabatlar tizimini aniqlash, vaqt tig'iz bo'lgan vaqtlarda asoslangan qarorlar qabul qilishga yuksak darajadagi pedagogik tafakkur fazilatlarini egallashga yordam beradi.

O'zbekistonda 12 yillik ta'lim barcha uchun majburiy ekani qonunlarimizda belgilab qo'yilgan. Yana bir bor ta'kidlab o'tish joizki, bu biz uchun prinsipial masala hisoblanadi. Ayniqsa, bilim olish qishloq joylarida to'g'risini aytganda, hamma ham 12 yil o'qishni hohlamaydi. Bu kunda o'sib kelayotgan yangi avlodimiz 12 yillik majburiy ta'lim olish bilan birga aniq mutaxassislik va kasb-hunarga ega bo'lishi kerak, bu ayniqsa, qizlarimiz uchun muhimdir.

Chunki yosh oilaning mustahkamligi avvalo qizlarning biror bir mutaxassislikni egallashi, hayotda o'zining mustaqil fikri va o'rniga ega bo'lishi bilan bevosita bog'liqdir. Shuning uchun ham barcha zarur fanlar bo'yicha umumiy bilim beradigan umuta'lim maktablarida 9 yil ta'lim olganidan keyin yoshlarimiz majburiy tarzda 2-3ta zamonaviy mutaxassislik bo'yicha kasb-hunarlariga ega bo'lishlariga alohida e'tibor berilmoqda.

12 yillik majburiy ta'limdan so'ng ularning har biri, o'z xohishiga ko'ra, bakalavr va magistr darajasini olish uchun oila o'quv yurtlarida o'qishni davom ettirishi mumkin

Mamlakatimizda 1500 dan ortiq yangi kasb kolleji va akademik litsey barpo etildi kasb-hunar kollejlardagi zamonaviy o'quv laboratoriya, kompyuter va ishlab chiqarish asbob-uskunalarini o'quvchilar uchun umumiy fanlar bo'yicha nafaqat to'liq bilimlar hajmini zamonaviy texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish imkonini beradi ko'nikmalarni egallashi, ayni paytda chet mamlakatlarida tengdoshlari bilan faol muloqot qilish, bugungi kunda dunyoda ro'y berayotgan“

Ta'lim tizimini tubdan isloh qilish odamlarimizning ongu tafakkuri va dunyo qarashini o'zgartirish, ularning siyosiy va grajdanlik faoligini, o'z kelajagiga

bo'lgan ishonchni oshirishni eng muhim omili va mustaxkam asosiga aylandi desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi.

“Bizning yangi avlodimiz bilimli, o'tmishining har qanday illatlaridan ozod bo'lgan yoshlarimiz bugungi kunda mamlakatimizni demokratlashtirish va liberallashtirish, uning yangilash va ishochli tarzida ravnaq toptirishning hal qiluvchi harakatlantiruvchi kuchiga aylanib bormoqda.

Shu borada o'tgan davr borada kasb-hunar kollejlari va akedemik litselari 2 milyon 300 mingdan ziyot talabalar bitirib chiqan, joriy yilda 500 mingdan ortiq o'quvchi o'rta toifadagi mutaxasis diplomini olib, o'qishni tamomlashni aytib o'tish kifoyadir. O'zbekiston birinchilaridan bo'lib 12 yillik majburiy ta'limga o'tdi. mamlakatimizning raqobatbardosh maxsulot ishlab chiqarish yo'naltirilgan korxonalariga o'rta maxsus ta'lim olgan yoshlar muayyan kasb-hunarni puxta egallab, ishlab chiqarish jarayoni asoslarini yaxshi bilgan holda tayyor mutahasis sifatida kelmoqda.⁹ Yigit-qizlarimiz kasb-hunar kollejlarda umumta'lim fanlari bilan bir qartorda mexnat bazorida talab katta bo'lgan bir necha kasb-hunarni egallash imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu borada litseylar ham muhim vazifani bajarmoqda. Litseylarda o'quvchilar akademik yo'nalishlar bo'yicha umumiy ta'limni chuqur o'rganishdan tashqari, muayyan ixtisosliklar bo'yicha fanlarni ham o'zlashtirmoqda. Yigit-qizlar litseylarda kollejlarni tamomlagach, oliy o'quv yurtlariga kirish va tanlagan mutaxassisligi bo'yicha ta'limni davom ettirish uchun etarlicha bilimga ega bo'lmoqda.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda 1396 kasb-hunar kolleji va 141 akademik litsey faoliyat ko'rsatmoqda shuni alohida takidlash kerakki, bunday o'quv yurtlari bugun mamkatimizning eng chekka joylarida ham bor. Ular uchun go'zal va zamonaviy binolar barpo etilgan.

O'quv-ishlab chiqarish xonalari va laboratoriyalari eng so'nggi texnik uskunalari, zamonaviy apparaturalar bilan jihozlangan. Bugun mazkur o'quv yurtlarida qariyb 1,7 million nafardan ortiq o'g'il-qiz bilim olmoqda. Ularga tajribali pedagoglar jumladan, fan nomzodlari va fan doktorlari saboq bermoqdalar. Iqtisodiyotimizning turli jabhalarida talab katta bo'lgan 86 ta'lim yo'nalishi, 225 kasb va 578 mutaxassislikni o'z ichiga olgan umumdavlat tasnifi ishlab chiqildi. Kasb-hunar kollejlarda yosh kadrlar tayyorlashda ishtirok etayotgan yirik sanoat korxonalarini tomonidan otaliqqa olingan.

2.2.II BOB. KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA CHET TILINI O'RGATISHDA LUG'ATLARDAN FOYDALANISH USULLARI

Leksik materialni o'rgatishga qo'yiladigan dasturiy talablar maxsus metodik usullar yordamida ishlab chiqishni taqazo etadi. Mazkur masala yuzasidan o'tkazilgan ilmiy tadqiqotga binoan quydagi usullarga amal qilinadi:

1. Chet tili o'rgatishda lug'atni oqilona chegaralash prinsipi tanlash mezonlari majmui leksik birliklar xususiyatlarni to'liq hisobga olish uchun xizmat qiladi; tanlash birliklari mezonlar bilan muvofiqlashtiriladi.

2. Til o'qitishda leksik birliklar taqdimoti muayyan maqsadga qaratilganligi usuli: leksik operatsiyani mustaxkamlash uchun qo'lanadigan birliklar aniq ko'nikmani xosil qilishga mo'ljallanadi va boshqa birliklar bilan uyg'un xolda ishlatiladi.

3. Leksik birliklarni lingvistik xususiyatlarini va ularni o'zlashtirishga aloqador psixologik tabiatini hisobga olish prinsipi: taqdimot va mashq davralada leksik birliklarning mavxum tushuncha ifodalaydiganlari tariflash fositasida,

Narsaga tegishlilari ko'rgazmalilik yordamida, sistema xosil qiladigan (ma'nodosh, teskari ma'noli mavzuga oid, mas dunyo tomonlarini - sharq, g'arb, janub, shimol ifodolovchi) leksik birliklar qiyoslash va guruxlash yo'li bilan, funksional (yordamchi) so'zlar esa kontekstda beriladi.

4. Ta'limning didaktik va psixologik qonuniyatlarini hisobga olish usuli: har bir leksik birlik taqdimot, mashq qilish va qo'llash bosqichlarida borgan sari kengaytirilib, ya'ni mano doirasi, tovush va yozish timsollari va turli birikmalarda, kontekst hamda guruxlarda qo'llanilishi izchillik bilan o'rgatib boriladi.

5. Naqd (real) lug'at boyligini, yangi so'z ma'nosiga asoslangan tarzda faxmlashni ta'minlash va hufiya lug'atni shakillantirishda o'zaro bog'liqlik usuli, har uchala vazifa faol, bir-biriga bog'liq va izchil bajariladi.

6. Ma'naviy (semantik umumlashtirishga suyanib ish ko'rish usuli; leksik birlik mazmun planini tahlil etish yo'li bilan birliklar o'rtasidagi va ko'p ma'noli birlikning semantik variantlari orasidagi o'xshashlik hamda tafovut belgilarini aniqlashga erishiladi. Bunday tadbir so'z ma'nosini ochish, binobarin, o'quvchilar nutqida leksik birlikni o'rinli qo'llash va to'g'ri tushunishni osonlashtirishga yo'llaydi¹⁰.

7. Nutq malakalarini o'stirish va shu jarayonda leksikani egallashni birga olib borish usuli; leksikani egallash jarayoni materialni o'zlashtirish va ko'nikmalarni rivojlantirishni

B.A. Buxbinder osnovi obuclieniya leksike v sredncy slikole (na materialc nemetskogo yazika). Avtoreferat dokt. Diss, -r., 1972. 31-32bellar. (dissertatsiyaning 449—462-betlari)

nazarda tutadi. Maktab tajribasida muallimlarga ayon asosiy shart-sharoitlar ushbu usullar doirasida amal qilmoqda, ularni quyidagicha umumlashtirish mumkun.

1. Leksik ko'nikmani shakllantirish ishi uning taqdimotini kontekstda ro'yobga chiqarilishi bilan chambarchas bog'liq (yanii yolg'iz, ajratilgan so'z ustida ishlash usulini istemol qilmaslik maqsadga muvafiqdir).

2. So'zning ma'nosini ochish og'zaki nutqning ilgarilashi tarzida sodir bo'ladi. (Leksikaning ma'nosini yozma matnda faxmlash bundan mustasno).

3. Reproduktiv nutqa so'zlarni biriktirishga etibor kuchaytiriladi (resepsiyada birikmalarni tayyor xolda idrok etilishi ma'lum)

4. har bir leksik birlikni hamma analizatorlar (ko'ruv, eshitish, nutq harakat, va qo'lharakat)dan «o'tkazish» kutilgan marraga tezroq olib boradi.

So'ziga tayanish va uning ma'nosini bildirish maqsadga muvofiqdir. Passiv minimum so'zlari o'quvchilar o'z og'zaki nutqlarida qo'llamasliklari kerak.

5. Metodik tasnifdan kelib chiqib so'zning taqdimot usullarini qo'llash oqilona yo'ldir.

6. Ichki va tashqi ko'rgazmalilikni leksik taqdimotga jalb etishda o'quvchilar yoshi, material xususiyati, o'qitish maqsadi va bosqichlarini hisobga olgan maquldur.

7. Qo'yilgan vazifaga qarab mashqlar tanlash va bajarish qat'iy qoidaga aylanmogi kerak.

8. So'zni imkon boricha takrorlash va boshqa so'zlar bilan biriktirishga erishish lozim.

9. Leksik birlikni bilish/ egallash darajasini aloxida so'rash usuli bilan emas, balki nutqda qo'llash pallasida nazorat qilib boriladi.

10. Ko'p ma'noli so'zning bir ma'nosigina ushbu darsda o'rgatilishi odat tusini olgan.

11. Lug'at minimumdan tashqari (novakabulyar) so'zlarni o'rgatishga muallim extiyotkorlik bilan yondashadi.

O'quv talablarga muvofiqlik prinsipi tematigiga emas, balki leksik boylikning grammatika hamda fonetikadan olgan bilimlar sistemasi bilan bog'lanishiga ham qo'llanilgan. Namunalilik prinsipi lug'at minimum tuzuvchilari oldida PFN lug'atini birmuncha qasqartirish vazafasi turganligi munosabati bilan ilgari surilgan edi. SHu prinsipga muvofiq lug'atdan FREUNDLICH, VERKORPER, SICHERN, BURGERLICH, SCHOPFERISCH kabi so'zlar chiqarib tashlangan edi, chunki ular tuzilishning namunaliligi ular oldindan tanishib o'tirmasdan foydalanish imkonini beradi.

Yuqorida ko'rsatilgan ikki prinsipni izchillik bilan qo'llash, shuning uchun qiyinlashdiki, aktiv va passiv lug'atning o'ziga xosligi etiborga olinmagan edi. Bu ish tanlashning salbiy mezonlarini ishlab chiqishning muxumligini ko'rsatib berdi.

Bu problemaning yanada ishlab chiqilishi leksika tanlashning asosiy va qo'shimcha prinsiplarini ajratishga, shuningdek, lug'atlarni qaydarajada tuzilish usullarini ifodalashga olib keldi.

Hozirgi vaqtda quyidagi prinsiplarni ilmiy jihatdan tamomila asoslangan deb hisoblash mumkin.

kollej lug'atini tuzish uchun umuman uch prinsip semantik, o'zaro birikish va stilistik jihatdan cheklanmaslik prinsipi qo'llaniladi. Barcha tanlab olinadigan so'zlar shularning talabiga javob berishi kerak. Biroq bunday yo'sinda tanlab olingan so'zlar juda ko'p bo'lsa, unda yana to'rtta qo'shimcha prinsip: ko'p ma'nolilik prinsipi, so'z yasash munosabati prinsipi, minimumni yanada ratsional cheklashni taminlovchi qurish qobilyati va chastotaligi prinsipi jalb etiladi. Hamma qo'shimcha mezonlarga moslashuv shart emas. Bir-ikki qo'shimcha usullarga mos kelmaydigan bazi so'zlar o'zlarining boshqa ko'rsatqichlari bilan juda muxim bo'lishi mumkin. Masalan ko'rish qobilyatiga ega bo'lgan so'z yasash munosabatiga ega bo'lmasligi mumkin; yuqori chastotalik hamma vaqt ko'p ma'nolilik bilan bo'lavermayda va xokazolar.

Semantik prinsip shundan iboratki, bunday minimumga maxsus ishlab chiqilgan tematika javob berib o'quvchilarga adabiyot o'qishda va chet tilida suxbat olib borishda uchraydigan eng muxim tushinchalarni aks ettiruvchi so'zlar tanlab olinadi. Biroq mazkur tematika ensiklopedik xususiyatga ega bo'lish bilan birga insoniyat faoliyatidagi top mutaxassisliksoxalarini qamrab ololmaydi shuning uchunham lug'at sementik prinsipga muvofiq ma'no detallari va juziy o'zaklarni ifodalovchi terminal va so'zlardan xolidir. Shuning uchun har bir oddiy tekstda tanlab olingan minimumga kirmasdan qolgan ma'lum protsent so'z bo'ladi. Faqat maxsus soxa bundan mustasinodir: tanlab olishda tili o'rganilayotgan mamlakatning xayoti va turmushi xususiyatlarini aks ettiruvchi tushinchalar etiborga olinadi va shu tushunchalarni ifodolovchi ba'zi bir so'zlar minimumga kiritiladi.

O'zaro birikish prinsipiga muvofiq minimum uchun boshqa so'zlar bilan eng ko'p birikmalar berish qobilyatiga ega bo'lgan so'zlar (masalan: nemis tilida -bringen frei machen; ingliz tilida—old run turn; fransuz tilida—chose coupdonner va boshqalar tanlab olinadi.

O'zaro birikish prinsipi ham —chastota prinsipi kabi katta ahamiyatga ega desa ham bo'ladi. Buni G.Palmer ham ko'rsatib o'tgan ham edi. Xaqiqatdan ham birgina chastotani asos qilib olinadigan bo'lsa, avvalo birortasi ham ot bo'lmagan ikki yuz so'zni o'zlashtirishga to'g'ri keladi, xolbuki bu birinchi ikki yuz orasida mon, ton va shu kabi boshqa so'zlar borki ular otsiz qollanilmaydi. Og'zaki nutqning aktiv aspekti (nuqtai nazari) ga o'rgatishda o'zaro birikish prinsipi ayniqsa muximdir, bu o'z o'zidan tushinarli: tanlab olinadiga so'zlardan qancha ko'p

foydali birikmalar olinish mumkin bo'lsa o'quvchining nutq faoliyati uchun leksik baza shuncha keng bo'ladi.

Stilistik jihatdan cheklanmaslik prinsipiga ko'ra minimum uchun hozirgi zamon adabiy tilning ham kitobiy yozma, ham so'zlashuv stillarida qabul qilingan so'zlar tanlab olinadi. Tanlab olingan lug'atdan tashqarida dialektizmlar, profissionilizmlar, maxalliy va tabaqa shevalari hamda laxjalarning boshqa elementlari, yani "beytral" stil deb atalishdan chetda qoladigan nutqning barcha leksik elementlari qoladi.

Ko'p ma'nolilik usuliga ko'ra, ma'no sistemasi rivojlangan so'zlar ustun qo'yiladi. Har bir yangi ma'no leksik birlik sifatida hisobga olinadi (lust—shodlik va lust—orzu: accompagner—kuzatib qo'ymoq va accompagner -jo'r qilmoq). Albatta, ko'p ma'noli so'zlarning hamma ma'nolarini ham minimumga kiritish kerak emas. Chet tilida ona til so'zning sementik tuzilishni taqqoslash yo'li bilan har ikkala tilda mos keluvchi manodoshni aniqlash mumkin. Masalan papir so'zi (nemis.) va qog'oz (o'zbekcha) so'zlarning sementik tuzilishini taqqoslaganda, ularning varaq xujjat, qo'l yozma kabi ma'nolarga mos keladi, binobarin kontekstda o'rganmasdanoq tushinilishi mumkin¹¹.

Minimumning ko'p ma'nolilik hisobga ortib ketishning oldini olish maqsadida unga kiritiladigan so'z ma'nolarning sonini qat'iy hisobga olish imkoniyat beradigan chegaralashlar kiritish va oson tushinish mumkin bo'lgan ma'nolarini ratsional ravishda chiqarib yuborish zarur bo'lib qoldi. Bu chegaralashlar asosan shundan iborat bo'ldiki, ko'p ma'noli so'zlar lug'at minimumga eng avvalo o'z asosiy ma'nolari bilan kiritildi, so'ngra semantik tuzilishlarini taqqoslash yo'li bilan bir—biriga o'xshashlari va bu bilan tanlashga kirmaydigan ma'nodoshlar aniqlab chiqiladi; mos kelmaydigan manodoshlarni minimumga kiritish masalasi tanlashning qolgan prinsiplariga asoslanib xal qilinadi. Turli tillarga nisbatan ko'p ma'nolilik prinsipini shu tillar xususiyatini hisobga olib qo'llash kerak bo'ladi. nemis tilida, masalan, bir-biri bilan konversiya munosabatida bo'lgan (funktional ko'p ma'nolilik) so'zlarni to'g'ri tanlashga yordam beruvchi aniqlashlar katta ahamiyatga egadir¹².

Tushinchalarni tariflash prinsipiga ko'ra, aktiv minimumga juda ko'p miqdordagi tushinchani ifodalay oladigan so'zlar, ya'ni maxsus leksikani o'rnini bosa oladigan so'zlar tanlanadi. Bu prinsip tufayli terminologik harakterga ega bo'lgan ko'p so'zlarning minimumga kiritilmasligiga erishish mumkin; biroq tariflanishi mumkin barcha so'zlarni chiqarib tashlash yo'lini tutmaslik kerak.

Inkor prinsiplarni qo'llash lug'at minimumning xajmini, undan foydalanishga zarar yetkazmagan xolda ratsional qisqartirish yo'lini ochib beradi. Inkor prinsiplari ijobiy

¹¹ B.F Korndorf, D.S Ivenskaya Slovar-minimum po angliyskomu yaziku dlya sredney shkoli. L.S. Andreevskaya-Levenstern, O.M Karlovich, Slovarminimum pofransuskomu yaziku dlya sredney shkoli m., 1955

¹² Qarang: I.V Raxmanov, metodika obucheniya nemetskomu yaziku. M.,1956. 228—231-betlar. I.V. Raxmanov (red) Slovar naibolee upotrebitelnix slov angliyskogo, nemetskogo I fransuzkogo yazikov, M, 1962..

kreteryalarga muvofiq tanlab* olingan so'zlarni dastavval tuzilgan ro'yxatdan asosli ravishda chiqarib tashlash mumkinligini ko'rsatadi.

Passiv lug'at uchun inkor prinsiplar qatoriga, jumladan, internatsional so'zlarni chiqarib tashlash prinsipi kiradi. Internatsional so'zlarni ikki gruppaga: ona va chet tilarida ayna bir ma'noni saqlab qoluvchilar (plan, radio: plan, radio), turlixil yo bir-biridan ancha boshqacha bo'lgan ma'noli (soxta do'stlar: deb ataluvchi) so'zlarga ajratish mumkin. Agar birinchi gruppadagi so'zlar, to'vush

Shuning uchun ularga so'zning shakli va ma'nosini tanishtirish bilan cheklanish mumkin: shu so'z uchraydigan kontekst uning qo'llanishini belgilaydi. So'zning shakliga ahamiyat berish juda zarurdir, chunki so'zning shakli o'zlashtirilmaganligidan tushunishda xatoga yo'l qo'yish mumkin (o'quvchilar ko'pincha tovush va yozilish jihatidan o'xshash bo'lgan so'zlarni, birinchi harfi bir xil bo'lgan, so'zda bir xil tovush va harf bo'lgan so'zlarni chalkashtirib yuboradilar).

Passiv leksikani ma'lum qilish munosabati bilan, so'zning barcha ma'nolarini birdaniga aytib berish kerakmi? Degan savol paydo bo'ladi. Metodik adabiyotda bu masala yuzasidan bir qancha fikir mavjud.

Ba'zi metodistlar o'quvchilarga passiv leksikani ma'lum qilishda, so'zning ma'nosini ham aytib berish kerak, toki bu so'zlarning ma'nosini ular har qanday kontekstda tushuncha olsinlar, deb hisoblaydilar. Bunday fikirda turlicha, o'qish va nutqni tinglashning bundan keyingi tajribalariga yetarli baxo berilmagan bo'ladi. Boshqa metodistlar asosiy ma'nolarni shuningdek, navbatda o'qiladigan tekistlarda uchrovchi so'zlarning ma'nolarini aytib berish bilangina cheklanish kerak, deb hisoblaydilar.

Keyinchalik o'quvchilar passiv leksikadagi so'zlarni yangi kontekstlarda uchratadilar va asta-sekin so'zning boshqa ma'nolarini ham o'zlashtirib boradilar. Bu so'zning barcha ma'nosini va bu ma'nolarning qaysi birini ma'lum qilish kerak degan masala maxsus tadqiq qilishni talab etadi deb hisoblaymiz.

Agar adabiyotda so'zlarning ma'nosini ochib berish usullariga qanday munosabatda bo'linayotganligi tahlil qilib ko'rilsa, bu eng ko'p ishlab chiqilgan masalada ham yagona fikr yo'qligi ma'lum bo'ladi. Semantizatsiyalashning eng yaxshi usullari haqida ko'pincha maqsadsiz bahs yuritiladi, chunki bu bahslar so'z harakteriga bog'liq bo'lmagan, metodik tipologiyadan tashqari holda olib boriladi.

Shu narsa mutlaqo ravshanki, semantizatsiyalash usulini tanlashda so'zning xususiyatini va o'qitish bosqichini hisobga olish kerak. Boshlang'ich sinflarda, ko'rsatib tushuntirish mumkin bo'lgan konkret predmetlarni ifodalovchi qator so'zlar o'rganilayotganda, tarjimasiz semantizatsiya vositalaridan keng foydalanish mumkin. Boshlang'ich sinflarda semantizatsiyaning tarjimasiz til vositalaridan faqat ko'rgazmali qurollar vositalari bilan birga

qo'shib foydalanish mumkin, biroq shunda ham asosan yuqori sinflardan, o'quvchilar birmuncha til tajribasiga ega buning natijasida so'z ma'nosini kontekstga, so'z yasovchi elementlarga qarab bilib oladigan, shuningdek, chet tilidagi so'zning ma'nosi haqida fikr yurita oladigan bo'lganida qo'llanish mumkin. Tarjima va ona tili hamda chet tillarida izoxlash har qanday so'zning ma'nosini ochib beruvchi vosita sifatida xizmat qilishi mumkin; Rasmlarni, harakatlarni, predmetlarni namoyish qilish, ko'rsatib tasvirlasa bo'ladigan so'zlar bilangina chegaralangan; kontekstdan aniq va yetarli darajada ravshan ma'noga ega bo'lgan so'zlarni tushuntirishda foydalaning mumkin. Bo'luvchi so'zlarninggina strukturasi tahlil qilish mumkin.

So'zlarning ma'nosini ochib berish masalalari bilan bir qator, metodika adabiyotida so'zlarni tushuntirish masalasi ham ko'rilmogda.

Bu o'rinli masala, balki uning formasi (va qo'llanish)ni ham o'zlashtirishi shart. So'zni tushuntirish uning ma'nosini ochib berishgina emas, balki so'zning formasi (fonetik, orfografik, uning Grammatik formalari)⁴

Bilan tanishishni nazarda tutadi. Lekin biz "so'zni tushuntirish" (yoki ma'lum qilish) tushunchasi bilan cheklanib bo'lmaydi, deb hisoblaymiz. Chunki yangi so'zlar o'quvchilarga hamma vaqt ham tushuntirib berilmaydi, unga hamma vaqt ham ma'lum qilinavermaydi; ba'zi xollarda yangi so'zlar bilan o'quvchining o'zi tanishadi, ularning ma'nosini o'zi ochib, formasini o'zi aniqlab oladi. Demak, o'quvchining yangi so'z bilan tanishib olish bosqichini belgilab berish va bu bosqichda qanday metodik usullar qo'llash mumkin ekanligini belgilab chiqish kerak.

Yangi so'zlar bilan turli yo'llar orqali tanishiladi, ya'ni nutq faoliyatidan oldidan yoki nutq faoliyati bilan birga tanishiladi; bu tanishish o'quvchining mustaqil ishlashi protsessida amlga oshishi mumkin yoki so'zlarni o'qituvchi ma'lum qiladi. So'zlar bilan tanishtirishning u yoki bu usuli, bir tomondan o'qitish bosqichiga, ya'ni o'quvchilarning chet tilida qanchalik tajribaga ega ekanligiga, qanday til materialiga, qanday malaka va ko'nikmalarga ega ekanligiga, ikkinchi tomondan so'z ustida ishlashda qanday maqsad nazarda tutilishiga, ya'ni so'zning qaysi aktiv yoki passiv leksik zapasga tegishli ekanligiga bog'liqdir.

So'zlar bilan tanishtirish usulini tanlash ham so'zlar harakteriga bog'liq bo'ladi. O'quvchilarni nutq faoliyati protsessida nutqni tinglashda, suxbat vaqtida, o'qib turgan vaqtda yangi so'zlar bilan tanishtirish juda ham foydali, chunki bu o'quvchilar diqqatini aktivlashtiradi, ularning yangi so'zlarni o'zlashtirishlariga yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarning yangi so'zlar bilan mustaqil ravishda o'zlarining tanishishi ham o'qituvchining tushuntirib berishiga qaraganda pedagogik nuqtai nazardan shubxasiz qimmatlidir. Biroq shunday qilganda, ko'p hollarda o'quvchilar oldida qiyinchiliklar paydo bo'lib qolishi sababli buning imkoni bo'lmaydi.

⁴ Qarang B.V. Belyayev, ocherki po psihologii obucheniya inostrannim yazikam M, 1959.

Shuning uchun so'z bilan ularni nutq faoliyatida qo'llanish orqali va o'qituvchining tushuntirishi yordamida tanishishga to'g'ri keladi.

Hamda harf shakli jihatidan o'xshashligini saqlasa u xolda bu so'zlarning tekstda o'quvchilar tomonidan oldindan o'rganilmasa xam, to'g'ri tushinilishiga umid bog'lash mumkin. Ana shunga asoslanib bu xil so'zlar, ular tanlashning ijobiy kreterasiyaga mos kelishi mumkinligiga qaramay, passiv minimumga kiritilmaydi.

Lekin maskur prinsipni, masalan, belgi, baxo manosiga ega bo'lgan nemischa va fransuzcha NOTE so'zga nisbatan ham qo'llab bo'lmaydi.

“So'z yasash prinsipiga ko'ra, so'zlarni chiqarib tashlash prinsipi shundan iboratki, o'quvchi bir qator notanish so'zlarni ularning tashkil etuvchi qisimlari unga malum bo'lganligi uchun tushinish mumkin. Agar so'zlar tashkil topgan negizlar minimumda bor bo'lsa, ular o'quvchilarga tanish bo'lsa va so'z yasovchi modellar har ikki tilda bir—biriga (o'xshash) mos kelsa, maskur prinsip yasama va qo'shma so'zlarga nisbatan qo'llaniladi. Keyingi shartga shuning uchun rioya qilish kerakki, so'zlash prosesida ma'no jihatdan o'zgarish turli tillarda turlicha sodir bo'lishi mumkin, bunda yangi juziy o'zgarishlar va ma'nodoshlarini yuzaga kelishiga yo'l qo'yiladi. SHu bilan birga, bir tildagi qo'shma yoki yasama so'z boshqa bir tilda soda so'z, so'z birikmasi, asosi boshqa bo'lgan so'z va shu kabi so'zlarning mano ekvivalenti sifatida kelishi mumkun. Bunday xollarda mana bu juftlardagiga o'xshash turli xil modellarga ega bo'lamiz; ausklaren (klar-ravshan)-yoritmoq (nur); bejahr (Jahr-yil) - keksa(yashamoq); **Federhalter**—ruchka.

So'z yasovchi negizlarning asosiy ma'nosi saqlansa va har ikki tilda so'z bir xil vositalar bilan yasalsa, modellar bir—biriga to'g'ri keladi: **Lehr+er, uchi+tel, lehrer+in, uchitel+nitsa.**

Bir-biriga to'g'ri kelishlik bir necha ma'nodosh so'zdan birida bo'lishi mumkin masalan, "**Geist+ig rux+iy**" va "**geist+ig aql+iy**" so'zlarda bir-biriga to'g'ri keladigan birinchi ma'nodoshdir, chunki lug'at minimumda **Geist** so'zi rux manosida berilgan; shuning uchun faqat ushbu so'zgina chiqarib yuborilishi kerak”^{*}.

Yuqorida ko'rsatilgan inkor prinsiplarni qo'llash tufayli potensial lug'at xosil bo'ladi, bu lug'at fondini o'rganish uchun jalb etilmasa ham undan o'quvchilar foydalanishi mumkun. Bu potensial lug'at fondining kichik bir qismi aftidan, ona tilidan bilimlarni ("internasional so'zlar")ni olib o'tish bilan bog'liq bo'lsa kerak. Boshqa qismi o'quvchilarning minimumga kiritilgan so'z yasash asoslari va qoidalarini bilganliklari tufayli tashkil topdi. Mana shuning uchun ham so'z yasash qobilyatiga ega bo'lgan negizlarini tanlab olish muhim ahamiyatga egadir. Bu o'quvchilar tomonidan imkoni boricha tushunib yetilgan qo'shma va yasama

* Internet ma'lumoti referat. uz

so'zlarning zapasini kengaytirishga imkon beradi. O'quvchilarning bu boradagi imkoniyati o'rganilishi lozim bo'lgan so'z yasash vositalari sostaviga ham bog'liqdir. Shuning uchun so'z yasovchi minimumni tanlash bevosita leksik tanlashga kiradi. Lug'at minimumni o'rganilishi lozim bo'lgan so'z yasovchi modellar ro'yxati bilan to'ldirish maqsadga muvofiqdir.

“So'z yasovchilar "minimumni tanlashning asosiy qoidalari to'xtalamiz. kollejda katta leksik gruppalarni o'z ichiga oluvchi eng ko'p qo'llaniladigan modelar o'rganiladi. So'z yasovchi model deganimizda, bir-biriga o'xshash negizlar va afiikslarning struktural tematik birligini tushinamiz. Yasalishning struktura jihatidan aniqligiga va semantik tiniqligiga ko'ra, model analogiya yo'li bilan yangi so'z yasash uchun namuna bo'lishi mumkin. Ingliz va nemis tilarida " ish harakatini bajaruvchi" ma'nosida keladigan "fel nigizi + er",

Modelni tanlash birligi deb qarab, o'z tarkibida ko'p qo'llaniladigan modellardagidek ega bo'lgan kam qo'llaniladigan modellarni o'rganishdan voz kechish mumkin. Nemis tilida, masalan, minimumdan kam qo'llaniladigan negizi+ig modelini osongina chiqarib yuborish mumkin, ammo keng tarqalgan "ot negizi+ig" modelini albatta kiritish kerak.

Modellar shaklan bir biriga to'la o'xshaganida, bir biridan o'zini mazmuni bilangina farqlanishi mumkin. Unda biz so'z yasashdagi omonimiga duch kelamiz. Masalan, nemis tilidagi ish harakatni bajaruvchi ma'nosiga ega bo'lgan "fel negizi +er" modeli (LEHR-ER) xuddi shu modelga o'xshash, ammo abstrakt tushuncha ifodalovchi modeldan farq qiladi Hozirgi vaqtda kam sonli so'zlarni o'z ichiga oluvchi unumsiz modelni kollejda o'rganish uchun ajratishning zarurati yo'q. Minimum uchun takroriy harakat ifodalovchi "ot negizi+lich" modelini tanlab olish maqsadga muvofiq emas, chunki bunday so'zlar ko'p emas. Xuddi shu modelga omonim bo'lgan, ammo belgi ifodalovchi model "gluk-lich" shubhasiz, maktab minimumiga kiradi”*

O'zlashtirilishi zarur bo'lgan material salmog'i birmuncha oshib boruvchi yuqori sinflarda unchalik ko'p qo'llanilmaydigan ba'zi bir modellarni o'rganishga jalb etish mumkin. Bu modellarning ahamiyati nutqning yozma uslubi uchun harakterli bo'lgan qo'shma va yasama so'zlarniung tushunishda muhimdir. Afsuski, kallej uchun tuzilgan lug'at minimumlar haligacha tanlab olingan so'z yasash modellar ko'rsatkichlari bilan ta'minlamagan, bundan o'qituvchi o'z ishida foydalanishi mumkin edi.

Ko'pchilik lug'at minimumlarining muhim kamchiliklaridan biri ularda frazeologiyaning yo'qligidir. Lug'at, shunday qilib, sun'iy ravishda leksikadan ajratiladi. Ishlab chiqilgan prinsiplarga ko'ra, lug'at minimumga semantik qiymatga ega bo'lgan, stilistik jihatdan neytral, tanlangan tematikaga mos keladigan frazeologik so'z birikmalari tanlanab olinadi.

Nisbatan ko'p bo'lmagan, lekin nutq aloqasi uchun muhim bo'lgan wie alt sind sie?

* Internet ma'lumoti www.Referat.ru

Passiv qismdan o'xshashlik (analogiya) sababli tushunish mumkin bo'lgan ona tilidagi birikmalar ekvivalentiga so'zma-so'z mos keladigan birikmalar chiqarib tashlanadi. Aktiv qismga eng ko'p qo'llaniladigan frazeologik birikmalar ajratiladi, bunda, leksika tanlashdagidek, sinonimlar qatoridan bittasi tanlab olinadi. Ma'nosiga ko'ra, ayrim so'zga mos keladigan so'z birikmasi, agar unda mazkur so'z (EINEN ENTSCHLUB FASSEN—entschliebcn) bo'lsa, aktiv minimumga kiritilmaydi.

Shunday qilib, frazeologiyani tanlab olishda leksika tanlash prinsipiga ko'p jihatdan mos keladigan quydagi prinsiplar qo'llaniladi. Umumiy prinsiplar o'zaro birikish namunaviylik, stilistik cheklanmaslik, belgilangan tematikaga va chastotalikka mos kelishlik. Bundan tashqari, tanlashning ikki maxsus inkor prinsipi. Ona tilidagi birliklarga so'zma-so'z mos keladigan o'xshash frazeologik birikmalarni (lug'atning passiv qismidan) chiqarib tashlash prinsipi va sinonimlarni (lug'atning passiv qismidan) chiqarib tashlash prinsipi qo'llaniladi

Modelni leksik jihatdan to'ldirish nutq amalga oshadigan predmet vaziyatga bog'liq bo'lganligi sababli, bunday vaziyatlarni oldindan tanlash mazkur modellarda qo'llanish uchun mo'ljallanilgan aktiv leksikani cheklashga yordam beradi.

So'ngra modellarni leksika bilan to'ldirish ushbu modellarni to'ldira oluvchi elementlar bilan amalga oshiriladi, ya'ni faqat ayrim so'zlar bilangina emas, balki bu so'zlarning kommunikativ nuqtai nazardan boshqa bo'linmaydigan birikmalar bilan ham amalga oshiriladi deb hisoblasak unda birgina aktiv lug'atni tanlashni yetarli deb bo'lmaydi. Aktiv lug'atni uning qanchalik birikishini hisobga olib tanlab olgandan so'ng nutq konstruksiyalarining shunday leksik elementlari topilishi kerakki, bu elementlar shu konstruksiyalarining to'ldirish bilan birga imkon boricha berilgan vaziyatga qarab aloqani to'laroq taminlay oladigan bo'lsin. Shuning uchun aktiv leksikani tanlashga bu o'rinda leksik elementlar kompleksini bundan keginham yaratish uchun ba'zi ta'minlovchi birinchi bosqich, deb qaraladi. "Eng ko'p qo'llaniladigan so'zlar lug'ati" da bunday elementlarni birikish prinsipiga qarab tanlash uchun zamin yaratib bo'lingan. Bu ish kollej uchun tanlab olingan nutq aloqasining tipik vaziyatlari hisobga olingan xolda davom ettirilishi kerak. Shu narsani ham nazarda tutish kerakki, og'zaki nutqqa o'rgatishni tamomila nutq konstruksiyalari bilan ishlashdan iborat bo'lib qolmaslik kerak. Shuning uchun reproduktiv o'zlashtiriladigan leksikani tanlash, tabiiy suxbatga o'rgatiladigan bosqichlarda ham o'z ahamiyatini to'la saqlab qoladi.

Lug'at boyligini o'rgatish usullari.

Leksik material bilan bog'liq bo'lgan masalani ko'rib chidik, endi leksik material bilan ishlash metodikasiga o'tamiz. Yoritishni talab qiladigan birinchi masala o'quvchilarga yangi so'zlarni ma'lum qilishdir. Bu problemaning asosiy masalalari odatda adabiyoti mualliflari tomonidan "leksikani tushuntirish" termini ostida birlashtiriladi. Bu termin kutilgandek yaxshi

chiqmagan, chunki uning to'la mohayotini ifoda etmaydi. Leksikani tushuntirish masalasi yuzasidan keng metodik adabiyot mavjud bo'lib, unda so'zlarning ma'nolarini ochib berish usullariga katta e'tibor beriladi.

Leksikani ma'lum qilish bilan bog'liq bo'lgan ba'zi muammolar bo'yicha turli xil fikrlar mavjuddir.

Metodik adabiyotda alohida so'z yuzasidan ish olib bopish kerakmi yoki so'zlarni kontekstda o'zlashtirish bilan cheklansa bo'ladimi, degan masala ustida hozirga qadar bahs olib borilmoqda. kolleжда chet tili o'qitishda bir necha yil davomida eng asosiy e'tibor alohida so'zni o'zlashtirishga qaratildi. Buni asosan o'lik (hozirgi vaqtda so'zlashilmaydigan) tillarni o'rgatish metokisa davrida vujudga kelgan traditsiya oqibati deyish mumkin. Bu metodikadan asosiy maqsad tekstni o'qishni o'rgatish edi, shuning uchun ham so'zning boshqa so'zlar bilan birikishiga chet tilida so'zlashish malakasini egallash nuqtai nazaridan qaralmagan edi. Hozir esa, o'zingizga ma'lumki, so'zlarning boshqa so'zlar bilan birikishi so'zlashuv tilini egallashda katta ahamiyatga ega deb qaraladi. Shubhasiz, kontekstdagi so'z ustida zo'r berib ishlash zarur, biroq bu harakat alohida so'z ustida ish olib borishni istisno qilmasligi kerak. So'zlarni o'rganishdan bosh tortish amalda o'quvchilarning yangi kontekstda uchragan so'zlarni bilmasliklariga olib kelgan bo'lardi. Kontekst ichida kelgan so'zning ma'nosi hamma vaqt ham uning asosiy nominative ma'nosi bo'lib kelavermaydi. So'zning asosiy nominative ma'nolarini o'zlashtirish uchun, alohida so'z ustida ish olib borishni kontekstdagi so'z ustida ishlash bilan birga qo'shib olib boorish kerak. Ayrim so'z ustida ishlash mazkur so'zning chet tilining boshqa so'zlari bilan taqqoslab ko'rish imkonini beradi. Bu taqqoslash so'zning tashqi va ma'naviy strukturasi to'g'risida muhim xullosalar chiqarishga yordam beradi, bu esa ularni esda saqlab qolish, to'g'ri qo'llash imkonini beradi va ularni og'zaki hamda yozma nutqda tanib va tushunib olishga yordam qiladi. Shuning uchun ishni hammavaqt alohida so'zdan boshlash kerak, deb hisoblaydiganlar ham, ish faqat kontekstdagi so'zdan boshlanadi, deb o'ylovchilar ham bab-baravar noxaqdirlar. Bunda so'zning qiyinlik darajasi, shuningdek, o'qitish bosqichi hisobga olinmaydi.

O'quvchilarda til sohasida hali hech qanday tajriba bo'lmagan boshlang'ich bosqichda so'zlar bilan kontekstda tanishish haqida gap yuritish mumkin bo'larmikan. Yangi so'zlarni nimaga asoslanib ma'lum qilish kerakligi haqida ham bahslar yuritilmoqda. Gap shundaki, yangi chet tili so'zi bilan bog'lash mumkin. Boshqacha aytganda, yangi so'zning ma'nosini tarjima qilmay yoki tarjima yordamida ochib berish mumkin. So'zning tushuncha bilan bevosita assotsialashuviga odatda quyidagilar asos qilib keltiriladi:

a) So'zning tushuncha bilan bevosita assotsialashuvi so'zlarni ona tili orqali o'zlashtirishga qaraganda osonroq o'zlashtirish yo'lidir.

b) Turli tillardagi so'zlardan anglashilgan tushuncha bir xil ma'noni bildirmaydi, shu sababli ham chet tili so'zning mazmunini ochib berish uchun tarjima qo'l kelmaydi.

c) Chet tilini o'rgatishda ona tilidan foydalanish chet tilida fikirlashning rivojlanishini orqaga suradi. Bu dalilarning har birini aloxida-aloxida ko'rib chiqamiz.

Ba'zi bir metodistlarning chet tili so'zning tushuncha bilan bevosita assotsiatsiyaga kirishi so'zni o'zlashtirishning eng oson yo'lidir, deb ta'kidlashlari ko'p darajada quruq gap bo'lib qoladi, chunki o'qitish tajribasidan ma'lumki, so'zning ma'nosini tarjimasiz bilish uchun o'quvchilarning o'z ona tili yordamida bilishdan ko'ra ko'p vaqt ketadi.

O'quvchilarga namoyish qilib ko'rsatish natijasida ularning qanday tushunganliklarini nazorat qilishga, ba'zan esa so'zning xususiyatlarini qo'shimcha ravishda tushuntirishga to'g'ri keladi.

Ona tili chet tilida fikirlashni orqaga suradi, degan fikir ham asossizdir, negaki, o'quvchi o'z fikrini ifoda etayotgan vaqtda, uning miyasida yuz berayotgan fikirlash protsessi, u qanday tilda gaplashishidan qat'iy, har bir kishi uchun xos bir narsadir. O'quvchilar uchun leksikadan foydalanishning butun qiyinchiligi yangi tushunchalarni o'zlashtirishlarida emas, chunki bu narsa ularga tanishdir, balki qiyinchilik chet tilidagi so'zlar ma'nosining hajmini va ularning boshqa so'zlar bilan birga qanday birikmalar yasashini bilib olishdadir. "Biz ona tili bilan taqqoslashdan butunlay voz kechdik va o'quvchi so'zlarni bevosita tushunchalar bilan xuddi ona tilidagidek, bog'lashga harakat qilsin deb faraz qilaylik, yana adekvativ ravishda aloqa o'rnatishga, ya'ni mazkur aloqa vaqtida o'quvchining shu so'zning ma'nosini juda tog'ri tushunishga (ko'pincha bunday bo'lavermaydi) erishdik, deylik.

Bunday xolda o'quvchi, masalan, "**Ich gehe in die Backerei Brot holen** "

Kontekstidan "holen (sotib olmoq)" so'zining ma'nosini tushunib olib, uni boshqa xollarda ya'ni *holen- sotib olmoq* ma'nosini bera olmaydigan holda, masalan: men o'zimga avtomobil sotib olaman, deganda qo'llashi mumkin, bu o'rinda faqat **kaufen** so'zi qo'llanadi. *{holen* esa avtomobil yollamoq ma'nosini bildiradi).

Hatto **holen** so'zi kontekstda o'zining asosiy ma'nosida - *keltirmoq* ma'nosida uchradi deb faraz qilaylik. *Holen* fe'lining bu ma'nosini o'zlashtirib olgach, o'quvchi uni o'zbek tilidagi keltirmoq fe'liga o'xshatib keltirmoq ishlatilgan hamma kontekstda ishlatilishi mumkin (masalan: misol keltirmoqni **beisiel gerben** deb tarjima qilish mumkin)»*.

Bundan tashqari fikirlash qonunlari hamma uchun umumiy tushunchalarni ishlatganliklari sababli gap asosan olganda, chet tilida fikirlash haqida emas, balki o'z fikrini chet tilida bayon qilish usuli haqida birmog'i kerak. Binobarin, ona tilidan foydalanish o'quvchilar tomonidan fikirlashning yangi usulini va ularni egallab olish uchun yangi til formalarini o'zlashtirishga to'sqinlik qiladimi - yo'qmi, gap faqat ana shu haqda boradi.

* O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tashkil etish chora tadbirlar to'g'risida

Bu savolga, quyidagi fikr-mulohazalarga asoslanib, salbiy javob berish kerak. Haqiqatdan ham, o'z fikringni yangi usulda izxor qilish odatini egallab olish uchun ona tili zarur emas, balki bir tilli mashqlargina zarurdir. Biroq fikrni ifoda etishning boshqacha usulidan va boshqacha til formalaridan foydalanish odatiga yoki ko'nikmasiga malakani anglab yetish natijasida erishiladi. Bularga erishishning eng yaxshi yo'li o'quvchi tomonidan tildan foydalanishida orttirilgan tajriba bilan taqqoslashdir. Shu bilan birga, chet tilida tajriba qancha kam bo'lsa, ona tiliga shuncha ko'p tayanib ish ko'riladi. Ona tili bilan taqqoslashda esa hamma vaqt ham ona tili nazariyasiga murojaat qilish shart emas: buning uchun ba'zida tilning tegishli qoidasini eslab yoki unga qarab qo'yish yetarlidir.

Shunday qilib, chet tilini o'rganuvchiga ona tilini e'tiborga olmaslik zarardir, chunki bu hol chet tili so'zlarining ma'nosi haqida noto'g'ri tushunchaga olib keladi va fikrni izxor qilishning yangi usulini egallashni orqaga suradi.

Lekin chet tilini o'rganishda ona tili interferensiyalovchi ta'sir ko'rsatadi, deb ta'kidlovchilar haqlimi? Ular shak-shubxasiz haqlidirlar, biroq ona tili fikirlashni rivojlantirishni emas, balki fikrni bayon qilishning yangi usullari va yangi formalarini egallab olishga to'siq bo'ladi. Yangi so'zlarning o'zlashtirishning qiyinchiligi, ilgari aytib o'tilganidek, shundan iboratki, tushunganlarni har hil tilda hamma vaqt bir xil izxor qilib b'lmaydi, eng muhimi bu ma'nolarni ifodalovchi so'zlarning ma'no hajmining ko'p qismi to'g'ri kelmaydi. Bu tafovutlarni ko'p tajribaga ega bo'lganda bartaraf etish mumkin, bunda o'quvchilar avval hamma vaqt chet tilidagi yangi so'zni unga ma'lum bo'lgan ona tilidagi so'z bilan xayolan taqqoslashni ham kerakli tushuntirishlar va mashqlar yordamida yengillashtirishdan iboratdir.

Bu tushuntirishlar, tabiiy, qisqa bo'lishi va til adabiyot oily o'quv yurtlari uchun xos bo'lgan lingvistik munozaralarga aylanmasligi zarur.

So'zlarni xabar qilish usullari o'sha so'zning aktiv lug'atga va passiv lug'atga kirish-kirmasligi hamda so'zlarning qiyinchilik tipiga bog'liq holda ko'rib chiqilmaydi, so'zlarni o'rganishdan maqsad, ya'ni so'zlarning nutq faoliyatining qaysi turida qo'llanilishi kerakligi xisodga olinmaydi.

Shu bilan bir vaqtda, so'zobrazi yaratish maktab o'quvchilari mazkur so'zni qo'llash uchunmi yoki uni tekstda bilib olish o'rganilayotganlariga qarab, turlicha yo'nalish borishi kerak.

Biz so'zlarni (aktiv zapas so'zlarini) o'quvchilarning o'z nutqida qo'llashiga o'rgatayotganimizda, fikr (tushuncha) mazmunda chet tili so'ziga asstsiatsiya paydo qilishga harakat qilishimiz kerak; so'zlardan modellarni to'ldirish uchun foydalanish malakalarni egallab olishlari haqida qyg'urishimiz kerak.

Aktiv minimum so'zlarini kiritayotkanimizda, hammadan avval o'quvchi ongida kerakli tushuncha paydo qilishimiz, undan keyin ularga shu tushunchani ifoda etish uchun chet tilida ishlatiladigan tovush formasini ma'lum qilishimiz va so'zni qo'llanishini ko'rsatishimiz kerak.

O'zbek va chet tillarda ma'no hajmi va qo'llanishda, bu so'zlarning tanlab olingan lug'at doirasida o'rganilgan barcha asosiy birikmalarini aytish kerak. Bizning fikrimizcha, barcha zarur bo'lgan birikmalarni so'zlar bilan birinchi tanishish protsessidayoq o'quvchilarga ma'lum qilish kerak emas, chunki bu narsa so'z bilan birinchi tanishishni murakkablashtiradi.

O'qitishning mazkur bosqichida kerak bo'lgan birikmalarning bir qismini mashqlarda berish mumkin, bunda birikmalar o'quvchilarning nutq faoliyati protsessida o'zlashtiriladi.

Passiv lug'at so'zlarini ma'lum qilishda yangi so'zlarni tekst o'qilayotgan vaqtda tanib va tushunib olishni ta'minlashga intilamiz. Bunday qilinganda, aktiv minimum so'zlarini o'zlashtirishdagidan ko'ra, boshqacharoq assotsatsiya kerak bo'ladi.

Kasb – hunar kollejlari uchun mo'ljallangan darsliklarda M.S Dadaxodjayeva, S.D Novikova, S. A Ziyayeva tomonidan yozilgan «Deutsch», A.B Abdullayeva, D.R Mirsodiqova, S.YO Abdullayeva, D.P Nosirov tomonidan yozilgan «Deutsch-2», G. Pan, Sh. Karimov, D. Ismatillayeva tomonidan yozilgan «Deutsch - 3»

o'quv qo'llanma***** juda mukammal va yaxshi programmalar bilan tuzilgan. Lekin akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining 1.2.3 bosqich talabalarining qay darajada bu darsliklardagi materiallaridagi o'zlashtira olishi bizga qorong'u. Bu programmalarini talabalarining qay darajada tushunishi biz fikrimizcha o'qtuvchining mahoratiga yani bilim, ko'nikma va malakasiga bog'liqdir. Chunki pedagog mavzuni sodda, tushunarli, hayotga bog'lab, misollar yordamida tushuntirsa va harakatlar orqali ifodalab bersa maqsadga muvofiq bo'lardi

o'yinga tushmoq	tanzen	dance
Bormoq	gehen	go start
rasm chizmoq	malen	drow
o'rgatmoq	lehren	train
qoshiq aytmoq	singen	song
hisoblamoq	rechnen	account
o'qimoq	lessen	study
o'tirmoq	sitzen	fit, sit
kulmoq	lachen	laugh
o'ynamoq	spielen	play
sayirga chiqmoq	wandern	have a trip
yozmoq	schreiben	sin
sakramoq	springen	jump

qarmoq tashlamoq
tikmoq

angehen
nâhen

fishing rod
sew



zelten

um Feuer sitzen



wandern



gehen



im Sand spielen



lachen

angeln



schwimmen baden



malen



schreiben



lehren



radfahren



Boot fahren



rechnen



tanzen



springen



singen



lesen



nähen



pflanzen (Bäumchen)

Mustaqillikka erishishganimizdan so'ng mamlakatimizda o'rta maxsus ta'limga katta e'tibor berila boshladi. Respublikamiz viloyatlari shahobchalarida, tumanlarga qarashli shahar va qishloqlarda kasb-hunar kollejarining qisqa vaqt ichida qurib bitkazilishi va ularning binolarida o'quv jarayonining o'z vaqtida tashkil etilishi fikrimizning yoqqol dalilidir.

Mamlakatimizning barcha oily o'quv yurtlarida bo'lganidek kasb-hunar kollejarida chet tili o'rgatishga alohida e'tibor berildi. Bundan asosiy maqsad shundan iboratki, kollejlarni bitirib chiqadigan bo'lajak mutahassislar mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda qatnashayotgan chet el mutahasislari bilan ozmi-ko'pmi chet tilida muloqotda bo'la olishlari zarur. Ushbu "O'zbekcha-nemischa–inglizcha qurilish atamaları lug'ati" qurilish kasb-hunar kolleji talabalariga chet tili sifatida o'qitilayotgan nemis tilini o'rganishda yaqindan yordam beradi va kelajakda ishlab chiqarishda ham ularga yaqindan yordam beradi degan umiddamiz.

O'zbekcha	Nemischa	Inglizcha
Qurilish	Der Bau	Building
Plastik	Schicht Die Schichtweise	Plastik
Elastic egiluvchan	Der kunststaft elastisch	Elastik
G'isht	Die Ziegel	Bvick
Shisha	Die Flashe	Glass
Temir	Das Eisen	Iron
Yog'och	Das Hold	Wood
Samon	Der Stroh	Strouv
Rezina	Der Das Gummi	Rubber
Nom	Die Feuchtigkeit	Wet
Quvuq	trocken	Dry
Beton	Der Beton	Concrete
Sement	Der Zement	Cement
Pol	Der Boden	Floor
Loy	Der Lehm	Mud
Shag'al	Der Scholter	Grovel
Taxta	Das Brett	Plank
Mix	Der Nadel	Nail
Arra	Die Sage	Sav
Traktor	Der Traktor	Tractor

Yonilg'i	Der Brennstoff	Fuel
G'ildirak	Das Rad	Wheel
Rul	Das Steuer	Rudder
Rama	Der Rahmen	Frame
Havo so'rish	Dey Lunftsaugen	Suck an airing
Mexanik	Der Mechaniker	Mechanic
Gaz	Das Gas	Gas
Prujina	Die Feder	Spreng
Gayka	Die Schrauben mutter	Nut
Blok	Der Block	Pulley
Trancport	Der Trasport	Transport
Mashina	Die Maschine	Machine
Zanjir	Der Drechflegel	Chain
Bolt	Der Bolzen	Bolt
Nasos	Die Pumpe	Pump
Reaktiv	Das Reagens	Reactive
Shina	Der Radreifen	Tyre
Reduktor	Das Reduzievgetriebe	reducer
Randa	der Hobel	Plane
Deraza	Das Fenster	Window
Oyna	Das Geas	Glass
Eshik	Die Tür	door
Etaj	Die Etage	Floor
Zina	Die Treppe	Stairs
Suv	Das Wasser	Water
Cho'tka	Die Bürste	Brush
Kurash	Die Verwitterung	Go to ruin
Aboy	Die Tapete	Wall-paper
O'lcham	Das Ausmass	Dimension
Qarishma	Die Lösung	Mixture
Cho'zilmoq	ausstrecken	Stretch
Yozilmoq	bersten	Cleave
Arqon	Billig	Lasso
Qum	Der Sand	Sand
Qoplamoq	abdecken	Cover

Oraliq	Zwischen	Interval
Mustahkam	hart, stark	Durable
Chidamliligi	Die Standhaftigkeit	Durable
Po'lat	Der Stahl	Steel
Kvars	Der Quarz	Quartz
Shlak	Die Schlake	Slack
Bino	Das Gebäude	Building
Inshoat	Die Anlage	Structure
Sanoat	Die Zndustrie	Industry
Ta'mirlamoq	ausbessern	Repair
Qayta tiklash	Wilderaufbauen	Rebuilt
Armatura	Die Armatur	Armature
Zavod	Das Werk	Plant
Loyiha	Der Project	Project
Boshliq	Die Leere	Vacuum
Standart	Der standart	Standart
Tekis	Glatt	even
Brigada	Die Brigade	Brigade
Grafik	Die Grafik	Diagram
Ambarhona	Der spiecher	Warehouse
Taxlam	Die falte	Fold
Maydon	Der platz	Area
Qulf – kalit	Der Verschluss	Lock
Ustaxona	Die werkstatt	Work shop
Tayyorlash	Die Anterfigung	Preparation
Qurilish ishlari	Pl, Bauarbeiten	Construction
Tuproq	Der Eraboden	Ground
Ishlab chiqarmoq	Erzeugen	Produce
Buzish	Der Abbruch	Destroy
Kechki smena	Die Abendschicht	Night shift
Qurilish axlati	Der bauabfall	Waste
To'xtatib qolmoq	Anfangen	Stop
Tayyorlash	Die Abfertigung	Prepare
O'qib tushmoq	Abfliessen	Flow down
Adashish	Die Abirrung	Be mistaken

Shartnoma	Das Abkommen	Agreement
Rad qilish	Die Ablehnung	Refuse
Kelishmoq	Verabreden	Get an agreement
Sindirmoq	Abreißen	Break
Jo'natmoq	Abschecken	Send
Qism	Der teil	Part
Eski	altmodisch	An old
Manzara	Der Anblick	Scenery
Inshoat qayta tiklash	Die Ausfrichtung	Restore
Kengaytirmoq	ausdehnen	Enlarge
Xarojat	Die ausgabe	Expense
Avtomobil yo'li	Die Autobahn	Road
Qurmoq	Bouen	build
Qurilish materiali	Baumaterial	Building
Arxitektor	Der Baumeister	Architecture
Qayin darxti	Die Birke	Birch
Ish staji	Das Dienstjahre	Length of work
Firma	Die Firma	firm
Archa	Das Fichtenholz	Timber
Qurilish joyi	Der fon	Construction place
Qo'l mehnati	Die Handerbeit	Handwork
Hamkorlik	Die Mitarbeit	Concordance
Zamonaviy	Modern	Modern
Bekorchi	Der Nichtstuer	Idler
Moy idish	Die Olkanne	Ail-can
Terak	Die pappel	Poplar
Record	Der record	Record
Avalamoq	Sogen	Saw up
Taqsimlamoq	Vertielen	Olivine
Faner	Das Furnierbrett	Plywood
Mix	Der Nagel	Nail
Yuk	Die Ladung	Load
Yuk tashuvchi	Der Lasttrager	Loader
Ustaxona	Die Werkstatt	Workshop
Hisob kitob	Die Rechnung	Counting

Hunarmand	Der Haudwerker	Handicraftsman
Qulay	Bequim	Convenient
Payvandlash	Die Schwlitzund	Endraftness
Ambor	Der splicher	barn
Reklama	Die Reklama	Publicity
Maydon	Die Flache	Place
Kenglik	Die Weite	Width
Ishchi	Der Arbeitet	Worker

2.3.III. BOB 1.2.3. BOSQICH KASB-HUNAR KOLLEJLARI UCHUN AJRATILGAN LEKSIK MINIMUMLAR HAQIDA

